

**Chorvachilikda anomal sovuq kunlari bajarilishi lozim bo'lgan  
ishlar to'g'risida  
TAVSIYALAR**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurg'oqchilik iqlimini hisobga olgan holda, qorako'lichilik sohasida bugungi kunda yaylov hosildorligi 1-gektardan 0,7-0,9 sentner atrofida bo'lib, chorvalarni qish oylaridagi anomal sovuqdan betalofat olib chiqish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirishni taklif qilamiz:

1. Yetuk yoshdagi chorva hayvonlarining +10+12 daraja va yosh chorvaning +16+25 daraja haroratdagi suv bilan sug'orilishi maqsadga muvofiq. Bir kunda yetuk yoshdagi qoramollarga o'rtacha 60–80 litr, yosh qoramollarga 20–30 litr, mayda shoxli qoramollarga 10-12 litr suv ichirish kerak.
2. Yaylov sharoitda oziqlantirishga qo'shimcha tarzda kechki paytlarda qo'shimcha ratsion asosida oziqlantirish orqali ularning bosh sonini saqlab qolish imkoniyatlariga erishiladi.

**Qo'shimcha oziqlantirish ratsioni**

Ozuqa	Kunlik me'yor, kg
Bug'doy somoni	0,5
Paxta sheluxasi	0,3
Arpa yormasi	0,3
Osh turi, gr.	15
Umumiy	1,1

3. Chorvalar saqlanadigan qo'ralar ahvolini yaxshilash va imkon darajada ta'mirlash ishlarini olib borish. Yaylovlarda boqiladigan chorvalarning tagiga somon va xas-cho'plar tashlash.

*Tavsiya Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali bilan hamkorlikda tayyorlandi.*